



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING**  
**BUYRUG‘I**

**27-iyun – Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kunini yuqori  
saviyada tashkil etish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-yanvardagi PF-27-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e‘tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi”ga asosan maktabgacha va maktab ta’limi sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar mazmun-mohiyati, maqsadi va vazifalari, erishilayotgan yutuqlarni keng jamoatchilikka yetkazish, ommaviy axborot vositalari bilan aloqalarni yanada mustahkamlash va sohani yoritishda jonbozlik ko‘rsatayotgan jurnalistlar mehnatini rag‘batlantirish hamda 27-iyun – Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kunini yuqori saviyada tashkil etish maqsadida **buyuraman:**

1. Axborot xizmati (D.Sobirova):

Maktabgacha va maktab ta’limi sohasidagi islohotlarni keng jamoatchilikka yetkazishda alohida faollik ko‘rsatayotgan jurnalistlar ishtirokida tadbir tashkil etsin;

2023-yil 24-iyun kungacha qadar maktabgacha va maktab ta’limi sohasidagi islohotlarni keng jamoatchilikka yetkazishda alohida faollik ko‘rsatayotgan jurnalistlarni taqdirlash bo‘yicha taklif kiritsin.

2. 27-iyun – Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kunini yuqori saviyada tashkil etish bilan bog‘liq sarf-xarajatlar smetasi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Mazkur buyruqning ilovasiga muvofiq tasdiqlangan sarf-xarajatlar vazirlikning 2023-yil uchun markazlashgan tadbirlarning xarajatlar smetasi mablag‘lari doirasida amalga oshirilsin.

4. Buxgalteriya hisobi va hisoboti bo‘limi (F.Jamuratova) tuzilgan shartnomalarga muvofiq o‘rnatilgan tartibda to‘lovlar amalga oshirilishini ta’minlasin.

5. Davlat xaridlarini tashkil etish bo‘limi (J.Mannonov) mazkur buyruq bilan tasdiqlangan sarf-xarajatlar smetasiga asosan davlat xaridlarini belgilangan tartibda amalga oshirsin.

6. Axborot xizmati (D.Sobirova)ga tadbir o‘tkazilgandan so‘ng 10 kun muddatda vazirlik Buxgalteriya hisobi va hisoboti bo‘limiga sarf-xarajatlar smetasi bo‘yicha hisobot taqdim etish vazifasi yuklatilsin.

7. Mazkur buyruqning bajarilishi nazorat qilish vazir o‘rinbosari T.Komilov zimmasiga yuklatilsin.

**Vazir**



**X.Umarova**

Toshkent sh.,  
2023-yil “21” – iyun,  
177 -son

O‘zbekiston Respublikasi  
Maktabgacha va maktab  
ta’limi vazirining  
2023-yil “21” -iyundagi  
177-sonli buyrug‘iga  
ILOVA

**27-iyun – Matbuot va ommaviy axborot vositalari kunini yuqori saviyada  
tashkil etish bilan bog‘liq sarf-xarajatlar  
SMETASI**

<b>T/r</b>	<b>Nomi</b>	<b>Miqdori</b>	<b>Soni</b>	<b>Narxi</b>	<b>Umumiy narxi (so‘mda)</b>
1.	Noutbuk	dona	20	5 800 000	116 000 000
2.	Gul (buket)	dona	20	220 000	4 400 000
3.	Kofe breyk (20 nafar ishtirokchi uchun)	xizmat	1	2 000 000	2 000 000
<b>Jami:</b>					<b>122 400 000</b>